

**2023-YILDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY HAYOTIDA
SODIR BO'LGAN VOQEALAR DINAMIKASI**

Mamatqulov Sardor Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning 2023-yilda ichki va tashqi siyosatida sodir bo'lgan muhim voqeliklar yoritiladi. O'zbekistonning Fors ko'rfazi, Markaziy Osiyo, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, YI mamlakatlari bilan faol aloqalari, noyabr oyidagi O'zbekistondagi qizg'in siyosiy jarayonlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Fors ko'rfazi munosabatlari, IHT, Markaziy Osiyo, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi.

2023-yil boshida O'zbekistonda noodatiy qahratonlar kuzatildi, havo harorati -20 darajadan ham pasayib ketdi. Bu nafaqat qattiq sovuqqa o'rganmagan aholi uchun, balki mamlakat kommunal tizimi uchun ham kutilmagan voqeа bo'ldi. Tizimdagи avariylar oqibatida bir necha kunlab chiroq bo'lmadi, gaz bosimi o'tgan yillarda energiya ta'minoti masalasida nisbatan barqarordek ko'ringan Toshkent shahrida ham pasayib ketdi.

Poytaxtda eng sovuq kunlarda ko'p qavatli turar joy mavzelerida odamlar gulxan atrofida isinishga majbur bo'ldi. Aholi tayyor ovqat sotib olishga va sovuqdan savdo markazlarida jon saqlashga majbur bo'layotganini ta'kidladi. Elektr va gaz yo'q bo'lgan sharoitda ko'p qavatli uylardagi xonadonlarni isitish imkonsizligi sabab, Mudofaa vazirligi, IIV va Milliy gvardiya Toshkentning bir qator mahallalarida chodirli shaharchalar qurdi — bu yerda odamlar issiq ovqat olishi, isinishi va mobil qurilmalarini quvvatlantirishi mumkin bo'ldi. Toshkent energetika tizimidagi inqiroz oqibati o'laroq 2018-yildan beri Toshkent shahar hokimi lavozimida ishlab kelayotgan Jahongir Ortioxo'jayev egallab turgan lavozimidan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yil boshidagi birinchi tashrifi 17-yanvar kuni Singapurga bo'lib o'tdi. O'zbekiston va Singapur o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirish istiqbollari, ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish borasidagi islohotlar yuzasidan fikr almashildi. Ta'lim sohasida faol hamkorlik qilinayotgani mammuniyat bilan qayd etildi. Toshkentda Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti hamda Singapur texnologiyalar, menedjment va kommunikatsiyalar akademiyasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ikki mamlakatning Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va

integratsiyani kengaytirish borasidagi tajribasi batafsil ko'rib chiqildi. Yilning dastlabki choragidayoq Qozog'iston va Qirg'iziston bilan kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishib olindi. Aprel oyida prezident Fransiya, Italiya, XXR, BAA, Rossiya, Chexiya Qozog'iston, Tojikiston delegatlarini qabul qildi va o'zaro manfaatli aloqalarni ta'minlash bo'yicha kelishib olindi. Ko'pgina siyosiy tahlilchilar O'zbekiston uchun 2023-sermahsul bo'lganini ta'kidlashdi. Xususan, 2023-yilda O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti bilan bog'liqlikni kuchaytirish borasida sifat jihatdan yangi bir darajaga ko'tarildi. Umuman, O'zbekistonning 2023-yildagi geosiyosiy va xalqaro munosabatlardagi faolligini anglash, qiyoslab ko'rish kerak. Masalan, 2005-2016 yillar oralig'ida O'zbekiston ma'lum bir izolyatsionizmga yuz tutgan edi.

Markaziy Osiyo uchun to'rtta geosiyosiy vektor bor: sharqda Xitoy, shimolda Rossiya, global janub va kollektiv g'arb. Mana shu 4 ta vektor bo'yicha hamkorlik sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarildi. Faqatgina Ukraina urushi sababli Markaziy Osiyoda Rossiyaning ishtiroki va ta'siri biroz pasaydi. Mana shu nisbiy bo'shliqni nisbatan Xitoy va global janub davlatlari to'ldirdi.

Turkiya va O'zbekiston aloqalari shu yil yuqori darajaga chiqdi; Fransiya prezidenti tashrif buyurdi; Yeldagi Germaniya, Italiya, Fransiya, Vengriya bilan aloqalar yuqori darajaga chiqyapti. Yelning eng yuqori mulozimlari keyingi paytda Markaziy Osiyoga serqatnov bo'ldi. Buni geosiyosiy kontekstda tushuntirish mumkin. AQSh va Xitoy o'rtasidagi istiqboldagi strategik tirashuv borgan sari kristallashib bormoqda, mana shu fonda geosiyosiy kurash maydonlaridan biri aynan Markaziy Osiyo. Markaziy Osiyodagi eng muhim davlat esa O'zbekiston. Bu yil O'zbekiston va Qatar munosabatlari yili bo'ldi. Kamida 3 ta yuqori darajadagi uchrashuvlar bo'ldi, biznes forumlar ham o'tkazildi.

20-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Qohira (Misr) shahriga tashrif buyurdi. Siyosat, xavfsizlik, savdo va sanoat kooperatsiyasi sohalaridagi hamkorlikni tubdan kengaytirish hamda madaniy-gumanitar va ta'lim aloqalarini mustahkamlash masalalari muzokaralarning asosiy mavzulari bo'ldi. Shundan so'ng president Ozarbayjonga jo'nab ketdi. 15-martda Turkiya rasmiy tashrif amalga oshirildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-mart kuni Amerika Qo'shma Shtatlari Davlat kotibi Entoni Blinken boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ta'lim va madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi dolzarb masalalarning keng doirasi hamda mintaqaviy hamkorlikning muhim jihatlari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Asosiy qonuning yangilanishini, shubhasiz, 2023-yilning bosh siyosiy voqeasidir. 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendumda xalq (ovozi berishda ishtirok etganlar ulushi 84,5 foizni tashkil etdi) Konstitutsianing yangi tahririni

ma'qulladi. Saylovchilarning 90,2 foizi asosiy qonunning o'zgartirilishi uchun ovoz berdi, 9,35 foizi esa bunga qarshi chiqdi. Unda O'zbekiston nafaqat huquqiy-demokratik, balki ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani, Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri yuridik kuchga ega bo'lishi, yer xususiy mulk bo'lishi mumkinligi, hokimlar kengash raisi lavozimidan ketishi va boshqa o'zgarishlar belgilandi. Shuningdek, prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi.

Asosiy o'zgarishlar sifatida Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylangani, unda O'zbekistonning ijtimoiy va dunyoviy davlat degan maqomi mustahkamlab qo'yilgani va yana boshqalarni sanab o'tish mumkin.

Referendumdan so'ng, mamlakatda yangilangan Konstitutsiyaga mos yangi qonunlar qabul qilina boshladi. Noyabrda prezident kodekslarga davlatning dunyoviyligini mustahkamlovchi tuzatishlarni kiritish to'g'risidagi qonunni imzoladi. Jins bo'yicha kamsitishni targ'ib qilganlik uchun 6,6 mln so'mgacha jarima solinishi, milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab bir toifa fuqarolarni boshqa toifa fuqarolardan ustunligini yoki nuqsonli ekanligini targ'ib qilganlik uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, ko'p xotinli bo'lishni targ'ib qilganlik uchun 15 sutkagacha qamoq jazosi tayinlash mumkin bo'ldi. Referendumdan so'ng, 9-iyul kuni O'zbekiston prezidentligi uchun muddatidan avvalgi saylovlar bo'lib o'tdi va unda amaldagi prezident Shavkat Mirziyoyev 87,05 foiz ovoz bilan qayta saylandi. Unga "Adolat" partiyasidan raqib bo'lgan Robaxon Mahmudova 4,43 foiz, Xalq demokratik partiyasidan Ulug'bek Inoyatov 4,02 foiz, Ekologik partiyadan Abdushukur Hamzayev esa 3,74 foiz ovoz oldi.

2-may kuni Prezident rasmiy tashrif bilan Berlinga bordi. O'zbekiston Germaniyani o'zining ishonchli va strategik hamkor sifatida qabul qilishi, mamlakatlarimizni chuqur tarixiy ildizlar bog'lab turgani qayd etildi. O'zaro tovar ayriboshlash va qo'shma loyihamalar soni ikki barobar ortgani mammuniyat bilan ta'kidlandi. Tashrif doirasida o'tgan qo'shma biznes-forum yuksak baholandi. Uning yakunida umumiyy qiymati 9 milliard dollarlik savdo, investitsiyaviy va texnologik loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. "Yashil" energetika, qazib chiqarish, kimyo, farmatsevtika tarmoqlarida, transport infratizulmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, innovatsiya va boshqa sohalardagi kooperatsiya loyihalari shular jumlasidan. Germaniya hukumati O'zbekistonning JSTga qo'shilishini hamda Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imkon qadar tez imzolashini bundan buyon ham qo'llab-quvvatlashga tayyorligi bildirildi.

17-18-may kunlari Sianda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo va Xitoy sammitini oladigan bo'lsak, Sian deklaratsiyasida respublikamiz va Markaziy Osiyo davlatlari ko'targan g'oyalar asosiy o'rinn tutadi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan ham kuchli

yondashuv sifatida qabul qilindi, mamlakatimiz tashqi siyosatidagi salmoqli nuqta bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Singapur Respublikasi Prezidenti Halima Yaqub 23-may kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Ushbu oliv darajadagi tashrif ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon o‘tgan 25 yil ichida birinchisi ekani ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Singapurga shu yil yanvardagi tarixiy tashrifi yakunida hamkorlikning muhim yo‘nalishlari bo‘yicha erishilgan barcha kelishuvlar izchil amalga oshirilayotgani mammuniyat bilan qayd etildi. Muzokaralarda siyosiy muloqot va parlamentlararo aloqalarini yanada mustahkamlash, xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, davlat boshqaruvi sohasida kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish, jamoat xavfsizligi va madaniy-gumanitar almashinuv bo‘yicha muloqotlarni faollashtirish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilayotgani alohida ta’kidlandi.

2-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Cho‘lponota shahriga keldi. Cho‘lponotada ikkinchi “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti bo‘lib o‘tdi. Uning kun tartibidan mintaqamiz mamlakatlarining Yevroittifoq bilan konstruktiv muloqotini yanada rivojlantirish va amaliy hamkorligini kengaytirish masalalari o‘rin oldi. Shundan so‘ng Shavkat Mirziyoyev 3-iyun kuni Turkiya prezidentining inaugratsiyasida ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy 5-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Diplomatik munosabatlar tarixida birinchisi bo‘lgan ushbu oliv darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berishi hamda uni keng qamrovli sheriklik darajasiga ko‘tarishga xizmat qilishi qayd etildi. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan 15 ta ikki tomonlama hujjatni imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi. Prezident 7-iyun kuni esa rasmiy tashrif bilan Italiya bordi.

Prezidentning 18-iyundagi Eronga tashrifida mamlakatlarning ikki tomonlama amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi. Tomonlar savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni yanada kengaytirishga muhim ahamiyat qaratishlari ta’kidlandi. Prezidentlar o‘zaro savdo hajmini oshirish, transport va logistika sohasida hamkorlikni muvofiqlashtirish imkoniyatlarini muhokama qildilar. Markaziy Osiyoni Eron bilan bog‘lovchi eng qisqa transport-logistika yo‘lklaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratildi. Iyul oyida esa prezidentning Saudiya arabistoniga amaliy tashrifi va umra amallari ado etildi. Avgust oyida prezidentning Turkmaniston va Vengriyaga rasmiy tashriflari amalga oshirildi.

Prezident administratsiyasi tuzilmasidagi o‘zgarishlar. Avgust oyida prezident o‘z ma’muriyatining yangi tuzilmasini tasdiqladi. Prezident administratsiyasi rahbari lavozimi tugatilib, prezidentning ikkita qo‘srimcha yordamchisi lavozimlari joriy etildi, ulardan biriga prezidentning bungacha administratsiya ijro apparatida ishlab kelgan to‘ng‘ich qizi Saida Mirziyoyeva tayinlandi. Maslahatchilar soni 9 tadan 11 taga oshirildi, jumladan, administratsiya rahbari lavozimi tugatilganidan keyin Sardor Umrzoqov yangi tashkil etilgan alohida topshiriqlar bo‘yicha maslahatchi lavozimini egalladi.

Elektr energiyasi, gaz va mustaqillik uchun kurash. O‘zbekiston avgust oyida Turkmaniston bilan yiliga 2 milliard kub metr turkman gazini sotib olish bo‘yicha shartnoma imzoladi. Tomonlar yanada uzoq muddatli va yetkazib berish hajmi ham kattaroq bo‘lgan shartnoma ustida ham ish olib bormoqda.

7-oktabrdan e’tiboran O‘zbekiston kuz-qish mavsumidagi yetishmovchilik o‘rnini qoplash uchun Qozog‘iston hududi orqali Rossiyadan gaz import qilishni boshladi. Gaz xarid qilish shartnomasi ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lib, kunlik xarid miqdori sutkasiga 9 million kub metrni — yiliga taxminan 2,8 milliard kub metrni tashkil etishi kerak.

Dekabrga kelib, qattiq sovuqlar sabab, “Gazprom” Toshkentning iltimosiga ko‘ra O‘zbekistonga gaz yetkazib berish hajmini ikki barobar oshirdi. Shu oyda “O‘rta Osiyo — Markaz” gaz quvuri orqali “texnik jihatdan maksimal hajmda” gaz o‘tkazilgan.

Umumiyligi 2 milliard dollar bo‘lgan ushbu loyihalar to‘liq quvvat bilan ishga tushishi bilan, ta’kidlanishicha, 2 million uy xo‘jaligi barqaror elektr energiya ta’minotiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, 2 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, 4 milliard dollarlik sanoat mahsuloti va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni qabul qilindi. Bu hujjat O‘zbekistonning kelgusi davrdagi rivojlanishining asosiy yo’l xaritasi – drayveri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 14-sentabr kuni Dushanbe shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchisi Maslahat uchrashuvida ishtirok etdi. Sentyabr oyidagi Markaziy Osiyo va AQSh sammiti ham yuqori darajada bo‘ldi. Davlat rahbarimizning BMTdagi chiqishlari, Yevropa bilan hamkorlik, Janubiy Osiyo bilan munosabatlarda rivojlanish davomiyligi... Respublikamiz ko‘tarayotgan masalalar nafaqat Markaziy Osiyo, balki xalqaro hamjamiyatda ham muhim o‘ringa ega bo‘lyapti.

2-noyabr kuni Fransiya prezidenti Emmanuel Makron Samarqand shahriga tashrif buyurdi.

9-noyabr kuni Toshkent shahrida “Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari” shiori ostida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Anvar ul-Haq Kakar, Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Alijan Smailov va IHT bosh kotibi Xusrav Noziriy ishtirok etdi. IHT doirasida ko‘p qirrali hamkorlik istiqbollari va uni yangi bosqichga olib chiqish muhokama qilindi, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

10-noyabr kuni Ko‘ksaroy qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘lib turgan Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellani rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 19-dekabr kuni Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy yana bir amaliy tashrif bilan Toshkentga keldi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni
2. <https://president.uz/>
3. <https://kun.uz/>
4. <https://www.gazeta.uz/>